

MA`MURIY JAZO CHORALARINING TURLARI VA TAVFSIFI

IIV Akademiyasi ma`muriy huquq

kafedrasi o`qituvchisi, leytenant

N. G. Sobirova

Anotatsiya: ushbu maqolada shaxs ma`muriy huquqbazarlik xattiharakati sodir qilganda unga nisbatan qo`llaniladigan ma`muriy jazo turlari va tushunchalari bayon qilingan.

Kalit so`zi: mamuriy jarima, ma`muriy jazo, huquqbazarlik, istisno etuvchi xolatlar.

Аннотация: в данной статье рассмотрены виды и понятия административного наказания, применяемого к лицу при совершении им административного правонарушения.

Ключевые слова: административный штраф, административное взыскание, правонарушение, исключительные обстоятельства.

Abstract: this article describes the types and concepts of administrative punishment applied to a person when he commits an administrative offense.

Key words: administrative fine, administrative penalty, offense, exceptional circumstances.

Tadqiqot maqsadi: ma`muriy jazo turlari va tushunchalari xaqidagi tahliliy fikrlarni takomillashtirish.

Tadqiqot obekti: ma`muriy jazo qo`llash bilan bog`liq ijtimoiy munosabatlar.

Tadqiqot ilmiy yangiligi: ma`muriy jazo turlari va tushunchalarini huquqni qo`llash amalyotida huquqbazarlik xolatidan kelib chiqqan holda raqamli tahlil jadvalini takomillashtirish.

Huquq hamisha ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etish vositasi bo`lib kelgan. Turli huquq tarmoqlarida tartibga solinadigan va qo`riqlanadigan ijtimoiy

munosabatlarni aybdor shaxs tomonidan buzganlik uchun yuridik javobgarlik nazarda tutilgan. Yuridik javobgarlik aybdor shaxsga nisbatan muayyan jazo qo'llashda namoyon bo'ladi. Masalan, mehnat intizomi buzilganda – intizomiy jazo, ma'muriy huquqbazarlik sodir etilganda – ma'muriy jazo, jinoyat sodir etilganda – jinoiy jazo qo'llaniladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikda ayrim sabablarga ko'ra ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish asoslari ham belgilangan. Shaxs ma'muriy huquqbazarlik xatti-harakati bo'lib hisoblangan harakatni oxirgi zarurat yuzasidan sodir etgan bo'lsa, ya'ni davlat yoki jamoat tartibiga, mulkka, fuqarolarning huquq va erkinliklariga va boshqaruvning belgilangan tartibiga tahdid qiluvchi xavfni bartaraf etish uchun sodir etgan bo'lsa, basharti bu xavfni mavjud boshqa vositalar bilan bartaraf etishning iloji bo'lmasa va yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan ancha kam bo'lsa, ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Shu bilan birga, agar shaxs ma'muriy normalarda taqiqlangan xatti-harakatni sodir etgan bo'lsa, lekin u bu harakatni zaruriy mudofaa holatida, ya'ni davlat yoki jamoat tartibini, mulkni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, boshqaruv yuzasidan belgilangan tartibni g'ayriqonuniy tajovuzlardan, shunday tajovuz qilmoqchi bo'lgan shaxsga zarar yetkazib bo'lsa-da, ham himoya qilish vaqtida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqmagan holda sodir etgan bo'lsa, bunday shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Ma'muriy qonunchilikda sodir etilgan ma'muriy huquqbazarlik kam ahamiyatli bo'lgan taqdirda, sud huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkinligi belgilangan. Xuddi shunday ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi boshqa organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan ma'muriy huquqbazarlikning kam ahamiyatliligi haqida xulosaga kelsa, huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun belgilangan tartibda ish sudga yuborilishi ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan vaqtida aqli norasolik holatida bo‘lgan shaxs, ya’ni u surunkali ruhiy kasallik, ruhiy faoliyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoxud boshqa kasallik oqibatida o‘z harakatining (harakatsizligining) ahamiyatini idrok qila olmagan yoki boshqara olmagan shaxs ham javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Ma’muriy qonunchilikda jinoyatga oid qonunchilik normalaridan farqli ravishda shaxs faqat 16 yoshga to‘lgan taqdirdagina ma’muriy javobgarlikka tortiladi, bunda ishni ko‘rib chiqish yoki ish bo‘yicha qarorni bajarishning boshlanish paytida emas, balki ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan paytga kelib, mazkur yoshga to‘lgan shaxslar javobgarlikka tortiladi.

Amaldagi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq, Yarashuv instituti ham shaxsni jazodan ozod etish maqsadida qo‘llaniladi. Agar ma’muriy huquqbazarliklarni sodir etgan shaxs, agar u o‘z aybiga iqror bo‘lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, ma’muriy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Biroq bunday qoida barcha huquqbazarliklar uchun ham qo‘llanilavermaydi, balki qonunda nazarda tutilgan alohida turdagи ma’muriy huquqbazarliklarga nisbatan tatbiq etiladi.

Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiquvchi organ (mansabdar shaxs) taraflarning yarashuvi munosabati bilan ishni sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqaradi va ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun ish materiallarini belgilangan tartibda sudga yuboradi.

Huquqbazarlikning bir yil ichida takroran sodir etilishi tomonlarning yarashuvi munosabati bilan ma’muriy javobgarlikdan ozod etilishini istisno etadi.

Ma’muriy jarimadan tashqari barcha ma’muriy jazo choralar, faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanishi mumkin.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, ma’muriy jazo asosiy va qo‘sishimcha ma’muriy jazo choralariga bo‘linadi. Har bir ma’muriy huquqbazarlik uchun yo asosiy yoki ham asosiy, ham qo‘sishimcha jazo chorasi qo‘llanilishi mumkin.

Asosiy ma'muriy jazolarga quyidagilar kiradi: jarima, maxsus huquqdan mahrum qilish; ma'muriy qamoqqa olish; ma'muriy tarzda chiqarib yuborish.

Asosiyga qo'shimcha tarzda qo'llaniladigan ma'muriy jazo turlariga quyidagilar kiradi: ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish, ashyni musodara qilish.

Jarima – ma'muriy jazo chorasining asosiy turi hisoblanadi va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan ma'muriy huquqbazarliklar uchun qo'llaniladi. U boshqa jazo choralarining o'rniga tatbiq etilishi mumkin emas. Qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda jarima qo'shimcha ma'muriy jazo chorasi bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin (masalan, ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish yoki musodara qilish).

Jarima O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, ijro hujjatlari bo'yicha undirib olinishi mumkin bo'lмаган mol-mulkdan undirib olinishi mumkin emas. Jarima solish to'g'risidagi qarorga muvofiq, jarima to'la-to'kis undirib olingach, uning ijro etilganligi haqida belgi qo'yilib, shu qarorni chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki sudga qaytariladi.

Jarima ma'muriy huquqbazarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdan iborat. Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbazarlik uchun esa bu huquqbazarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab qo'yilgan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng kam miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ellikdan bir qismidan, mansabdor shaxslarga esa o'ndan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Fuqaro va xizmatchilarga solinadigan jarimaning eng ko'p miqdori bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan, mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan oshmasligi kerak. Ba'zi huquqbazarliklar uchun bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin (bunday huquqbazarliklar turlari qonunda alohida belgilab qo'yiladi).

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan belgilanadigan jarimaning eng ko‘p miqdori fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan oshmasligi kerak.

Boshqacha aytganda, jarima ma’muriy huquqbazarliklar uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning Maxsus qismi moddalarining sanksiyalarida belgilangan hollarda qo‘llaniladi. U moddiy xususiyatga ega bo‘lgan ma’muriy jazo chorasi bo‘lib, aybdor shaxslardan davlat hisobiga undirib olinadigan muayyan bir pul miqdorida ifodalanadi. Jarima tarzidagi ma’muriy jazo chorasi huquqbuzarning ongiga ta’sir ko‘rsatib, avvalo, uning moddiy manfaatlariga zarar yetkazadi. Shu bois ma’muriy jarima samarali jazo choralaridan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 29-moddasi 2-qismida ma’muriy qamoqqa olish qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslarning ro‘yxati keltirilgan. Shu sababli, ma’muriy qamoqqa olishni jazo sifatida qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilinayotganda, bunga qandaydir to‘sqliar bor- yo‘qligi aniqlanishi kerak: ayol homiladormi, uning uch yoshgacha bo‘lgan bolalari bormi, huquqbazar o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolani yolg‘iz tarbiyalayotganligi, o‘smirning yoshiga yetganligi, ma’muriy javobgarlikka tortilgan shaxs nogironmi- yo‘qmi va h.k.lar. Bu holatlarning barchasi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi lozim.

Ushbu jazo turi ma’muriy javobgarlikning samarali choralaridan biri sifatida ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga vakolatli barcha organ (mansabdor shaxs)lar tomonidan o‘rnatilgan ma’muriy-protsessual tartibda qo‘llaniladi. Jarima solish to‘g‘risida organ (mansabdor shaxs)ning qarori chiqariladi. Faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda ma’muriy huquqbazarlik sodir etilgan joyning o‘zida bayonnomaga tuzilmasdan jarima solinadi.

Bu – ma’muriy jazoning turi sifatida faqat ma’muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyolar uchungina tatbiq etiladi. Mazkur jazo chorasi mulkiy xususiyatga ega bo‘lgan ma’muriy jazo chorasi bo‘lib, faqat ma’muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli

hisoblangan yoki bevosita shunday narsa sifatida foydalanilgan ashyolar egasiga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Shuni yodda tutish kerakki, huquqbuzarga tegishli bo'lмаган ashyolarni (masalan, г‘айриқонуниy ov qilish, baliq tutish natijasida qo'lga kiritilgan mahsulotlar, ya'ni yovvoyi hayvonlar, baliqlar) haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish ma'muriy jazo chorasi hisoblanmaydi.

Ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish ham asosiy, ham qo'shimcha ma'muriy jazo chorasi sifatida qo'llanilishi mumkin. U asosiy jazo chorasi sifatida faqat o'qotar qurollar va o'q-dorilarni saqlash yoki tashish qoidalarini buzganlik uchun jarima bilan muqobil tarzda nazarda tutilgan. Qo'shimcha jazo chorasi sifatida haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish, xavfli moddalar va ashyolarni transportda tashish qoidalarini buzganlik uchun va o'qotar ov qurollari va o'q-dorilarni sotishdan bo'yin tovlaganlik uchun belgilangan.

Bundan tashqari, agar birinchi huquqbazarlik uchun qonun chiqaruvchi ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yishni qo'shimcha jazo chorasi sifatida nazarda tutsa, ikkinchi huquqbazarlik uchun mazkur jazo chorasini, albatta, asosiy jazo chorasi bo'lган jarima bilan to'ldiradi. Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish to'g'risidagi qaror asosida olib qo'yilgan narsalar belgilangan tartibda sh shartnoma- vositachilik asosida yoxud auksion shaklidagi kim oshdi savdosida realizatsiya qilinadi. O'qotar qurollar va o'q-dorilarning haqini to'lab olib qo'yish to'g'risidagi qaror ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi.

Ushbu ma'muriy jazo chorasi ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lган ashyoni musodara qilish, shu ashyoning haqini to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazishdan iborat. Mazkur ma'muriy jazo – ma'muriy jazoning turi sifatida faqat ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lган ashyolar uchun tatbiq etiladi. Musodara qilish jazo chorasi tuman (shahar) sudining jinoiy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan qo'llaniladi. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa,

huquqbuzarning shaxsiy mulki bo‘lgan ashayogina musodara qilinishi mumkin. Kontrabanda ashylari egasi kim bo‘lishidan qat’i nazar, musodara qilinadi. Musodara qilish chorasining qo‘llanish tartibi, musodara qilish mumkin bo‘limgan buyumlarning ro‘yxati Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va boshqa qonunlar bilan belgilanadi. O‘z navbatida, o‘qotar quollar va o‘qdorilarni, boshqa ov quollarini musodara qilish asosiy tirikchilik manbai ovchilik bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga asosan, musodara qilish jazo chorasi quyidagi hollarda qo‘llaniladi: 1) asosiy ma’muriy jazo chorasi sifatida; 2) qo‘srimcha ma’muriy jazo chorasi sifatida.

Muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan mahrum qilish (transport vositalarini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan mahrum etish) – huquqbuzarning belgilangan faoliyat bilan shug‘ullanishini, maxsus huquqlardan foydalanish huquqini vaqtinchalik cheklashdan iborat ma’muriy jazo turidir. Qonun chiqaruvchi bu jazo chorasini qo‘llashni faqat transport vositalarini boshqarish huquqidan va ov qilish huquqidan mahrum etish hollari bilangina cheklaydi.

Turli transport vositalarini boshqarish hamda ovchilik bilan shug‘ullanish – belgilangan yoshga to‘lgan shaxsda maxsus huquq (tegishli transport vositasini boshqarish uchun haydovchilik guvohnomasi, taloni, shuningdek, ovchilik biletining) mavjud bo‘lishini talab etadi. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda maxsus huquqdan mahrum qilishning eng ko‘p va eng oz muddatlari hamda mazkur jazoni qo‘llovchi organ (mansabdar shaxs) belgilangan bo‘lib, maxsus huquqdan mahrum etishni tuman (shahar) sudining jinoiy ishlar bo‘yicha sudyasi tomonidangina aybdor shaxs o‘ziga berilgan maxsus huquq (transport vositalarini boshqarish, ov qilish huquqi)dan foydalanish tartibini qo‘pol buzsa yoki muntazam buzib kelsa, shu huquqdan o‘n besh kundan uch yilgacha muddatga mahrum qilish jazo chorasi qo‘llanilishi mumkin.

Biroq transport vositalarini alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik vositasi ta’siridan mast bo‘lgan holda yoki o‘zgacha tarzda mast bo‘lgan holda boshqarish

hollari, mastlik darajasini belgilangan tartibda aniqlashdan bo‘yin tovlash, shuningdek, o‘zлari ishtirokchi bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari sodir etilgan joydan ketib qolish holatlarida nogironlarga ham mazkur jazo chorasi qo‘llaniladi. Maxsus huquqdan mahrum etish, ko‘pincha, yo‘l harakati qoidalarini va transportdan foydalanish qoidalarini qo‘pol ravishda buzganliklari uchun transport vositalarining haydovchilariga nisbatan qo‘llaniladi. Harakat xavfsizligini ta’minlashning ta’sirchan vositasi bo‘lgan transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etish mazkur huquqlarni ma’lum darajada cheklash bilan bog‘liq jazo chorasi hisoblanadi. Bunday ma’muriy jazo chorasini qo‘llash asosiy kasbi haydovchilik bo‘lgan shaxslar uchun muayyan muddatga mutaxassisligi bo‘yicha ishslash, havaskor haydovchilar, shaxsiy avtomototransport sohiblari uchun belgilangan muddat davomida o‘ziga tegishli transport vositasini boshqarishni taqiqlashga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, mazkur jazo chorasining amal qilishi avtomobil, traktor va boshqa o‘ziyurar mashinalar, mototsikllar va boshqa mexanik transport vositalari, kichik hajmli kemalar haydovchilari sodir etgan qo‘pol huquqbazarliklar uchun ham tatbiq etiladi.

Ov qilish huquqidan mahrum etish, asosan, quyidagi huquqbazarliklar uchun nazarda tutiladi: ov qilishga tegishli ruxsati bo‘lmagan holda yoki taqiqlangan joylarda yoxud taqiqlangan muddatlarda, taqiqlangan quollar yoki usullar bilan ov qilish, shuningdek, ov qilish va baliq tutishning boshqa qoidalarini muntazam ravishda buzganlik uchun.

Ma’muriy qamoqqa olish – huquqbazar shaxsga nisbatan uning shaxsiy erkinligini uch sutkadan o‘n besh sutkagacha (favqulodda holat tartibi sharoitida esa jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun – o‘ttiz sutkagacha) vaqtinchalik cheklash va jamiyatdan ajratib qo‘yishdan iborat bo‘lgan qattiq ma’muriy jazo turidir.

Ma’muriy qamoqqa olish tarzidagi ma’muriy jazo chorasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning faqat ayrim ma’muriy huquqbazarliklari

uchun belgilangan va ular o‘zining darajasi jihatidan jinoiy qilmishlarga yaqin bo‘lgan huquqbazarliklar uchun qo‘llaniladi.

Ma’muriy qamoqqa olish faqat tuman (shahar) sudining jinoiy ishlar bo‘yicha sudyasi tomonidan, favqulodda holat tartibi sharoitida esa harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig‘i tomonidan qo‘llanilishi mumkin.

Qonunda ma’muriy qamoqqa olish jazo chorasini qo‘llab bo‘lmaydigan shaxslar ro‘yxati belgilangan bo‘lib, ushbu ma’muriy-huquqiy normaga asosan, homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo‘lgan ayollarga, o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolasini yakka o‘zi tarbiyalayotgan shaxslarga, o‘n sakkiz yoshga to‘lмаган shaxslarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga hamda harbiy xizmatchilar va yig‘inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek, ichki ishlar organlarining safdorlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslarga nisbatan ma’muriy qamoqqa olish jazo chorasi qo‘llanilishi mumkin emas.

Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish – chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish ularning O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi keyinchalik bir yildan uch yilgacha muddatga cheklangan holda majburiy yoki nazorat ostida mustaqil ravishda chiqib ketishidan iborat.

Ma’muriy tarzda chiqarib yuborish tuman (shahar) sudining jinoiy ishlar bo‘yicha sudyasi tomonidan qo‘llaniladi. Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish qonunda belgilangan alohida turdagи huquqbazarliklar sodir etilgan taqdirda qo‘llanilishi mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan jazolar bilan bir qatorda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 292-moddasida karantin va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi va tarqalishi sharoitida tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini qo‘llash ham majburlov chorasi sifatida belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so‘zi 2016 yil 8 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir” nomli ma’ruzasi.
3. I.A.Karimov “Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak”. T.10. –T.: O‘zbekiston, 2002. 409 B.
4. I.A.Karimov “Adolat qonun ustuvorligida” T-“O‘zbekiston”- 2002 y. B 36.
5. I.A Karimov. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.19-tom.T., «O‘zbekiston», 2011-yil. 220 bet.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2019. -40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020 y., 03/20/603/0071-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.07.2018 y., 03/18/487/1569-son.